

O'SMIR YOSIDAGI O'QUVCHILARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tojiddinova Layloxon - ADU talabasi

ANNOTATSIYA

Shaxs ijtimoiy hayotining tarkib topishida axloq va ong o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. O ‘zida umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayonida shaxs ishonch, haqiqat, yolg‘on, muttahamlik kabi nuqtayi nazarlarning qaramaqarshiliklariga duch keladi. Demak, shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatida uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini ham albatta, hisobga olish lozim. L.S.Vigotskiyning fikricha, shuni ham inobatga olish kerakki, bolaning psixik rivojlanishida va o‘z-o‘zini anglashning taraqqiy etishida nasliy omillarning ham roli mavjuddir, biroq asosiy tamoyil sifatida psixikaning rivojlanishida muayyan hayot tarzining roli ham kattadir.

Kalit so`zlar: ixtiyoriy xotira; mantiqiy tafakkur; nutq, sezish, his

Har bir psixik funksiyalar ba’zi o‘rinlarda biologik organizm hayoti bilan birga shakllanib boradi. L.S.Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, yuqori funksiyalarga qaraganda elementar funksiyalar ko‘proq naslga bog‘liq bo‘ladi. Yuqori funksiyalarga ixtiyoriy xotira; mantiqiy tafakkur; nutq kirsa, elementar funksiyalarga sezish, his qilish kabilar kiradi. Demak, shaxs psixikasining shakllanishida ham biologik, ham ijtimoiy omillarning ta’sirini inobatga olish muhimdir. O‘rtal Osiyoda ham shaxs shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida mutafakkirlarimiz o‘ziga xos fikrlarni bildirganlar. Ular orasida bu boradagi fikrlarini asosan ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan asoslashga harakat qilganlardan biri F.Attor hisoblanadi. Uning quyidagi fikrlari aynan ijtimoiy muhitning shaxsga ta’siri masalasini oydinlashtirishga qaratilgan desak, xato bo‘lmaydi. «Ko‘zingi ochib qaragin, — deb ta’kidlaydi alloma, — dunyo xuddi qaynab turgan qozonday jo‘shib-toshib turibdi, sen ham shu qozonning ichida qaynayapsan. Ostingda olov lovillab turibdi, shu sababli tinmay qaynab turibsan, dunyo bilan birga. Bu qudrat bor ekan, qaynash davom etadi. Ammo asosiy maqsad, bu qozonda pishib yetilish va «jonni jononga qo‘shish»dir. Shunda quduqdan qutulib, «aynulyaqin» bo‘lsan, ilohiy saodatda o‘zligingni qayta namoyon qilasan. Shunda kishi: «Makon va lomakon birlikda ko‘rdim, jon va jismni uzviylikda ko‘rdim», deya oladi bemalol». Allomaning ushbu qarashlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, inson ijtimoiy muhitsiz hech kim emas. U doimo xohlaydimi-yo‘qmi, muhit bilan hamnafasdir.

Oliy ta’lim muassasalari va ulardagи o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo’lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan

quollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi. O'qituvchining kreativligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Hozirgi kunda butun dunyoda ta'lif jarayonlariga o'qitishning eng samarali usullarini izchillik bilan joriy etish orqali - har tomonlama yetuk kasbiy malakaga hamda nostandard fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan yetuk kadrlarni tayyorlash muammosi dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatimizda ham barcha sohalar singari, ilm-fan va ta'lif sohalarida, xususan oliy ta'lif tizimida ham tub islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida "...talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan"ligi masalasiga e'tibor qaratilgan. Bu esa, ushbu muammoni ilmiy – pedagogik nuqtai nazardan chuqur va tizimli tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Talaba kamoloti jismoniy, ahloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo'lib, bu borada uning mustaqil fikrashi muhim o'rinnegi egallaydi. Mustaqil fikr yuritishning ro'yobga chiqishida talaba fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilalar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzlusiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu bois talaba o'zining mustaqil fikrashi, nutqi, ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi. Talaba mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalarining to'g'riliqi, haqiqiyligi yoki ularning voqelikka mos tushishi va tushunmasligini aniqlaydi. Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alomatlari va belgilari to'g'risida materiallar to'plash ham ijodiy fikrlashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichdan iborat bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir qarorga kelinadi. Talabaning fikrlash faoliyati ijtimoiy xususiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, fikrlashning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval ovqatlanish uchun ozuqa izlash, keyinchalik esa mehnat qurolini yasash va ular dan o'z o'rnida foydalanish kezida shaxslararo fikr almashish, tajriba bilan o'rtoqlashish ehtiyoji vujudga kelgan. Insonning o'zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o'rnatishti natijasida fikr bildirish, so'zlashuv uquvi yuzaga kela boshlagan. Nutqning sharofati bilan fikrlash maxsullarining izchilligi,

mantiqiyligi, tizimliligi paydo bo‘lgan, kelajak avlod uchun ma’naviy meros tariqasida qoldirish imkoniyati tug‘ilgan. Insoniyat tomonidan to‘plangan tizimlashtirilgan tajribalar, bilimlar, ko‘nikma va malakalar qoldirilmaganida, odamzodning fikr yuritishi fan, texnika, madaniyat sohalarida bunday ulkan yutuqlarga erisha olmasdi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Каримова В.М. «Аудиторияда баҳс-мунозарали дарсларни ташкил этишнинг психологик техникаси» (Услубий тавсиялар). - Т.: 2000, 16 б.
2. Каримова В.М. Логико-операционный аспект формирования самостоятельного мышления. Таълим ва тарбия - 2000, 1-2-сон. 92 -94 б.
3. Каримова В.М. Фикр тарбияси ва мустақил фикрлаш.- «Маърифат», 1999
4. Gardner N. «Creativity lives and creative works: a synthetic scientific approach». // R. Stemberg T. Tardif (eds). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press, 1988. P. 298-324.